Demak, mazkur so‘z ham o‘zbek tilida substrat qatlamga mansub so‘zlarning miqdori taxmin qilinganidan ko‘ra ko‘proq va tarqalish areali ancha kengligini ko‘rsatadi. Uning inglizcha jannat tushunchasini ifodalovchi *paradise* so‘ziga aloqadorligi R.Mahmudov tomonidan alohida qayd etilgan.[1]

Devor so‘zining shakllanishi ham *tuproq* tushunchasiga bog‘liq bo‘lib, u tarixan *daiza- //diza- uära-* “qo‘rg‘on devori”, “devor” ma’nosini anglatgan. Qadimgi fors tilida *dida-vära-*, o‘rta fors tilida *dewär*, monaviy bitiklarida *dyw'r*, klassik fors tilida *devär*, dari tilida *dewar*, tojikchada *devor, devol* (bu fonetik holat o‘zbek tilida ham kuzatiladi), hozirgi fors tilida *divär*, boxtar tilida *divar*, tot tilida *duvár* shaklida uchraydi. Bu so‘z yag‘nob (yangi so‘g‘d) tilida *divar, divör, davar, dawar, diwär, dwar* “eshik; chiqish joyi”, xorazmiyda *öβr, öfr [<var]*[2] tarzida qo‘llanilgan. Osetin tilida esa *dwar* shaklida bo‘lib, “eshik” ma’nosini anglatgan.[3]

V.N.Toporov fikricha, etimologik tahlil til fanlarining turli sohalari: fonetika, so‘z yasalishi, morfologiya, leksikologiyaning tahlil vositalari va usullarining sintezidir. Etimologik tahlilning maqsadi so‘zning kelib chiqishi muammosini hal qilishdir.

Etimologiya bilan birgalikda ular, ko‘pincha, tilshunoslikda istorizm haqida gapirishadi, chunki ba’zida tadqiqotchilar faqat tarixiy xarakterdagi xulosalarga kelishadi. Demak, etimologiya tilshunoslikning boshqa sohalariga qaraganda tarixiy kontekst bilan chambarchas bog‘liq.[4] Ingliz toponimlari haqida gapirganda, ularni etimologik tahlil qilish uchun murakkab hodisa ekanligini ta’kidlash lozim. Buning sababi shundaki, Angliya toponimiyasi ko‘p asrlik rivojlanish yo‘lini bosib o‘tgan bo‘lib, turli etnik guruhlar va tillar (keltlar, rimliklar, anglo-sakslar, skandinavlar va normanlar tillari) ta’sirida rivojlangan.

A.V.Urazmetova Buyuk Britaniya toponimlarini asl, o‘zlashtirilgan va gibridlarga ajratadi.[5] V.D. Belenkaya kelt, lotin, fransuz va skandinaviya tillaridan olingan toponimlarni ajratadi.[6] S.N.Basik semantik ma’noning shaffofligi mezoni asosida toponimlarni etimologik jihatdan yaqqol (to‘liq aniq semantik ma’noga ega toponimlar), etimologik jihatdan shaffof (etimologik tahlil natijasida ma’nosi ochilgan toponimlar), etimologik jihatdan noaniq toponimlar (ularning ma’nosini ochib bo‘lmaydi)ga ajratadi.

Xulosa. O‘zbek toponimiyasining asosini, albatta, turkiy qatlam tashkil qiladi. Toponimiyada dastlabki nomlar sodda bo‘lib, obyektning o‘z nomi bilan atalgan. Masalan, daryo, ko‘llar “suv” ma’nosini, tog‘lar “tog‘” ma’nosini beruvchi so‘zlar bilan nomlangan. Shunday bo‘lishiga qaramay, mazkur so‘zlarning tarixiy tavsifi ularning birdan shakllanmaganligi, o‘ziga xos tafakkur tarzi asosida yuzaga kelganligini ko‘rsatishi bilan birga, qardosh va noqardosh tillar lingvomadaniyatini ochib berishda muhim ahamiyatga ega. Bu umumiylik va xususiyliklar xalqlar tafakkur tarzini belgilashda muhim o‘rin tutadi.

Djumamuratov Kuanishbay Azatbay uli (Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti 3-kurs tayanch doktoranti; quwanishbay.djumamuratov.97@gmail.com)

INGLIZ VA QORAQALPOQ TILLARINING RANG KOMPONENTLI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARINING SEMANTIKASIDA BINAR AKSIOLOGIK TAHLIL

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz va qoraqalpoq tillarida so‘zlashuvchilar dunyo aksiologik manzarasidagi rangni baholashda lingvomadaniy o‘xshashlik va farqlar aniqlangan va ularning tarkibida asosiy rang nomlarini o‘z ichiga olgan frazeologik birliklarning materiali: oq, qora, qizil, ko‘k, yashil, sariq ranglar asosiy komponentlar sifatida olingan. Shu bilan birga, o‘rganilayotgan tillarda rangli componentli frazeologik birliklarning baho ma’nolarini shakllantirish asosidagi semantik mexanizmlarning tavsifi ham keltirilgan. Binaraksiologik tahlil orqali rang komponentlarini o‘z ichiga olgan frazeologik birliklarning ijobiy va salbiy baholovchi ma’nolarini aniqlangan. Tahlil ikki tilda – ingliz va qoraqalpoq tillarida ranglarning leksik ma’nolari va madaniy konnotatsiyalarini hisobga olgan holda amalga oshirilgan.*

Kalit so‘zlar: *tilshunoslik, binar aksiologik tahlil, ijobiy ma’no, salbiy ma’no, rang, oq, qora, qizil, ko‘k, yashil, sariq, his-tuyg‘u, qadriyatlar, o‘xshashliklar.*

---

[1] Маҳмудов Р.Б. Ўзбек тилида авестизмлар. Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори дисс., Урганч, 2020, 93-бет.

[2] Henning W.B. The Khwaresmian Language. Zeki Velidi Togan’a Armag‘an. Istanbul, 1955, p. 426, 432.

[3] Абаев В.И. Историко-этимологический словарь осетинского языка. Т. I, М.–Л., 1958, с. 377–378.

[4] Топоров, В.Н. Исследования по этимологии и семантике. М., “Языки славянской культуры”, 2004, с. 24.

[5] Уразметова А.В. Английская топонимика как лексическая подсистема языка (на материале топонимической лексики Великобритании и США). Дисс… на соискание ученой степени д-ра филол. наук, Уфа, 2016.

[6] Беленькая, В.Д. Очерки англоязычной топонимики. М., “Высшая школа”, 1977, с. 25.

Джумамуратов Куанышбай Азатбай улы (докторант 3-го курса Каракалпакского государственного университета имени Бердаха; quwanishbay.djumamuratov.97@gmail.com)

БИНАРНЫЙ АКСИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ В СЕМАНТИКЕ ЦВЕТНЫХ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ АНГЛИЙСКОГО И КАРАКАЛПАКСКОГО ЯЗЫКОВ

Аннотация. *В данной статье выявлены лингвокультурологические сходства и различия в оценке цвета в аксиологической картине мира носителей английского и каракалпакского языков, а также материал фразеологических единиц, содержащих основные названия цветов: белый, черный, красный, синий, зеленый, желтый. Приведено также описание семантических механизмов, лежащих в основе формирования оценочных значений фразеологических единиц с цветовым компонентом в исследуемых языках. С помощью бинарного анализа определены положительные и отрицательные оценочные значения фразеологических единиц, содержащих цветовые компоненты. Анализ проводился на двух языках – английском и каракалпакском с учетом лексических значений и культурных коннотаций цветов.*

Ключевые слова: *лингвистика, бинарный аксиологический анализ, положительное значение, отрицательное значение, цвет, белый, черный, красный, синий, зеленый, желтый, чувство, ценности, сходства.*

Djumamuratov Kuanishbay Azatbay uli (Karakalpak State University named after Berdakh, 3rd year basic doctoral student; kuwanishbay.djumamuratov.97@gmail.com)

BINARY AXIOLOGICAL ANALYSIS IN THE SEMANTICS OF COLORED PHRASEOLOGICAL UNITS OF THE ENGLISH AND KARAKALPAK LANGUAGES

Annotation. *In this article, linguocultural similarities and differences in the assessment of color in the axiological worldview of English and Karakalpak speakers are revealed, and the material of phraseological units containing the main color names in their composition is taken as the main components: white, black, red, blue, green, yellow. At the same time, a description of the semantic mechanisms underlying the formation of evaluative meanings of phraseological units with color components in the studied languages is given. Through binarxiological analysis, the positive and negative evaluative meanings of phraseological units containing color components were identified. The analysis was carried out in two languages – English and Karakalpak, taking into account the lexical meanings and cultural connotations of colors.*

Keywords: *linguistics, binary axiological analysis, positive meaning, negative meaning, color, white, black, red, blue, green, yellow, feeling, values, similarities.*

Kirish. So‘nggi bir necha o‘n yilliklardagi tilshunoslikdagi muammolarning rivojlanishi natijalaridan biri yangi ilmiy yo‘nalish – aksiologik tilshunoslikning (lingvoaksiologiya) paydo bo‘lishi hisoblanadi. Asosiy tushunchalari baho va baholash bo‘lgan aksiologik tadqiqotlar, dastlab, falsafa, mantiq, sotsiologiya va psixologiyada olib borilgan.

Olamning lisoniy manzarasida qadriyatlarning turli xillari, ularning ziddiyatlari va qarama-qarshiliklari aniqlangan. Qadriyatlar majmui madaniyatning o‘ziga xosligidir. Tilni baholash tildagi qadriyatlarni aks ettirishning asosiy usuli sifatida e’tirof etilgan. Lingvistik nuqtayi nazardan tilni baholash deganda so‘zlovchining (baholash subyekti) baholanayotgan obyekt yoki hodisaga (baholash obyekti) ma’lum bir munosabatini turli fonetik, morfologik, leksik-frazeologik, sintaktik vositalar yordamida ifodalash tushuniladi.

Bahoni ifodalashning eng zarur vositasi frazeologiya bo‘lib, bu holda baholash ekspressivlik va emotivlik bilan chambarchas bog‘liq hisoblanadi – hissiy munosabatni ifodalashi – ijobiy (ma’qullash, hayratlanish, rag‘batlantirish va boshqalar) yoki salbiy (ma’qullash, qoralash, e’tiborsizlik, baqirish, kamsitish va boshqalar).

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. V.I.Karasik fikriga ko‘ra, lingvistik baholar madaniy konseptlarni tavsiflaydi, lingvomadaniy tadqiqot usullari esa qadriyatlarni konseptni, lingvistik o‘rganish usullari sifatida ishlaydi va “rang” konsepti madaniyat konstantasi bo‘lganligi sababli, eng qadimgi semiotik tizim va dunyoning konseptual manzarasining zaruriy qismidir. Bu konseptni turli tillarda so‘zlashuvchilar dunyoning aksiologik manzarasini tushunishning asosi bo‘lib hisoblanadi [5;17-b.].

Insonning rang sezgilari va lingvistik baholash kategoriyasi o‘rtasidagi aloqani rang o‘zini tavsiflovchi funksiyasini yo‘qotganda paydo bo‘lib, bunda rang moddiy olamning oddiy elementi bo‘lib qolmay, balki inson ongidan o‘tadi, estetik, ruhiy ma’noga ega bo‘lganda namoyon bo‘ladigan bo‘ladi, bu “obyektlar va ularning xususiyatlarining insonga ta’sirining o‘xshashligiga, metaforik yoki metonimik taqqoslash orqali obyektlarga o‘xshashligiga asoslanadi”, tilning frazeologik tizimida doimiy konsolidatsiya bo‘ladi [4;26-b.].

Tilni aksiologik jihatdan o‘rganishda inson hayoti haqidagi bilim va lingvistik mexanizmlarning qanday ishlashini aniqlash haqidagi bilimlarni saqlaydigan jihat bo‘lib, u o‘z ichiga tilning leksik tizimi xususiyatlarini oladi, ya’ni, yaxshi va yomon, chiroyli va xunuk, fazilatli va yovuz, yoqimli va salbiy, foydali va zararli va hokazo. Ikki turli til tizimining frazeologiyasida aks etgan asosiy qadriyatlarga, shu bilan birga, ong va tilda baholovchi ma’nolarni yaratish usullariga asoslanib, dunyoning qadriyatli manzarasini o‘rganish tillardagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlash uchun istiqbolli ko‘rinadi.

Tadqiq etilayotgan masalalar bo‘yicha ilmiy ishlar tahlili, lingvomadaniy paradigma doirasida olib borilgan aksiologik tadqiqotlar [5;17-b., 2;438-b., 3;333-b.] rang belgilash komponentiga ega frazeologik birliklarning aksiologik aspekt sifatida alohida ilmiy tahlil obyekti bo‘lmaganligini ko‘rish mumkin.

Deyarli barcha odamlarda atrofdagi voqelikka qadriyatga asoslangan munosabat hisoblanadi, albatta, ularning dunyo haqidagi fikrlarini aks ettiradi va shakllantiradi. “Hayotga qadriyatli yondashuv juda erta bolalik davrida shakllanadigan obyektlarni binar oppozitsiyalarga bo‘lishdan boshlanadi, ya’ni, yaxshi va yomon toifalarga ajratishdan shakllanadi. Inson dunyo haqida maxsus bir fikrlarni bildirgan holda, doimo yaxshilik va yomonlik (yaxshi va yomon) haqidagi universal va individual g‘oyalarni ranglar tarmog‘iga yuklaydi. Inson mavjud bo‘lgan, bo‘ladigan, ehtimol va bo‘lishi mumkin bo‘lgan hamma narsani baholay oladi” [1;5–6-b.].

Psixologiyada qadriyatlar yo‘nalishlarini o‘rganish metodologiyasining muallifi M.Rokich qadriyatlarni to‘g‘ri-noto‘g‘ri xulq-atvorlarni va amalda borliqning yakuniy holatini (end-state of existence) belgilaydigan e’tiqod turi (a type of belief) sifatida e’tirof etib, bunga erishish mumkin yoki, umuman, kerak emas deb hisoblaydi. M.Rokichning qadriyatlari muayyan obyekt yoki vaziyatga bog‘liq emas, u ideal xulq-atvor modellari va xayoliy yakuniy maqsadlarga nisbatan individual e’tiqodlarni ifodalovchi ijobiy yoki salbiy mavhum ideallar sifatida tavsiya etiladi. M.Rokichga ko‘ra, qadriyat boshqa odamlarning e’tiqodlari va xulq-atvorlariga ta’sir etuvchi standartdir [6;214-b.].

Natijalar. Binar aksiologik tahlilning asosiy tamoyillarida baholovchi ma’nolarni ikki kategoriyasiga ajratib o‘rganishni talab etuvchi binar aksiologik yondashuv bilan bog‘liq. Bular ijobiy qiymatlar (yoqtiruvchilar) va salbiy qiymatlar (qarshi baholovchilar).

Rangli semantikaga ega frazeologizmlar madaniy va lingvistik kontekstga muvofiq muayyan aksiologik yukni ko‘taradi. Masalan, bir rang turli tillarda turlicha ma’noga ega bo‘lishi mumkin: ingliz tilida “white” rangi an’anaviy tarzda poklik va beg‘uborlik bilan bog‘langan bo‘lsa, qoraqalpoq tilida esa kontekstga qarab olqish, o‘lim, oziq-ovqat kabi turli ma’nolarda qo‘llanilishi mumkin.

“Oq” komponentli frazeologik birliklar qoraqalpoq tilida o‘rganilganda J.Eshbayev, Q.Paxratdinov, Q.Bekniyazov, G.Aynazarovalarning frazeologik birliklar lug‘atlari va B.Yusupovaning frazeologik birliklar haqida olib borilgan ilmiy ishlarida keltirilgan 64 birlik tahlil qilindi (3.1-jadval).

3.1-jadval

“Oq” komponentli frazeologik birliklar tahlili-frazeologik birlik	**Ma’no**	**Kontekst**	**Aksiologik tahlil**	
Aq bezerde, kók bezer (bolıw)	Umid berish, ba’zi narsalarga va’da berish, lekin, asosan, natijasiz qolish.	Bekorchi va’dalar yoki foydasiz urinishlarni tasvirlash uchun qo‘llaniladi.		-
Aq degeni – alǵıs, qara degeni – qarǵıs	Hamisha so‘zi inobatga olinadigan inson.	Salbiy ma’noda manmanlikka uchrab, faqat o‘zining fikrini ma’qullaydigan odamlarni ta’riflashda qo‘llaniladi.		-
Aq degeni – aq, qara degeni – qara	To‘g‘ri gapirish, har bir narsani o‘z nomi bilan atash.	Shaxsiy fikrni to‘g‘ri aytadigan odamlarni tavsiflashda qo‘llaniladi.	+	
Aq júzin sarı etip, jas basın ǵarrı etiw	Kasallik yoki hayot qiyinchiligi tufayli yoshlik va go‘zallikni yo‘qotish.	Turmush qiyinchiliklari tufayli erta keksaygan odamning holati tavsifi.		-
Aq jawıp, arıw kepinlew	Marhumni dafn etish marosimiga tayyorlang	Diniy an’anaviy shart-sharoitlarda qo‘llaniladi.		-
Aq kóylek, kók kóklek	Boylikni ifodalaydi.	Kishining tashqi ko‘rinishiga qarab davlatini baholash.	+	

Aq nayzanıń ushı menen, aq bilektiń kúshi menen	Kuch va tinimsiz harakat orqali ma'lum bir narsaga erishish.	Jangovarlik, qahramonlik va kuch maqtalishi kerak vaqtida qo'llaniladi.	+	

Oq komponentli frazeologik birliklar rang spektrining xususiyatidan kelib chiqqan holda, ijobiy rang deb qabul qilingani bilan oq komponentli frazeologik birliklarning 64 donasining faqat 28 donasi ijobiy kontekstda qo'llaniladi, ko'pchiligi salbiy mazmunni anglatadi.

Ingliz tilida white komponentli frazeologik birliklar soni 40 ta bo'lib, binaraksiologik tahlil rang komponentlarini o'z ichiga olgan frazeologik birliklarning ijobiy va salbiy baho ma'nolarini aniqlashga asoslanadi. Masalan, ingliz tilida "white lie" so'z birikmasiga zararsiz yolg'on sifatida ijobiy baho beriladi, "black sheep" esa salbiy ma'noga ega va uyatli oila a'zosini anglatadi. Tahlil ikki tilda – ingliz va qoraqalpoq tillarida ranglarning leksik ma'nolari va madaniy konnotatsiyalarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Ingliz tilida rang komponentli frazeologik birliklar his-tuyg'u va qadriyatlarning ranglarini yetkazish uchun keng qo'llaniladi. Taqqoslash uchun aytadigan bo'lsak, bu fikrga to'g'ri keladigan so'z birikmalari qoraqalpoq tilida ham uchraydi, lekin ularning ma'nosi madaniy kontekstga qarab o'zgarishi mumkin. Bu turli til an'analarida bir xil rangni qabul qilishdagi farqlarni aytib o'tadi, misollar:

White lie – "oq yolg'on" (ijobiy ma'no);
White as snow – "qorday oq" (ijobiy ma'no);
Black sheep – "Qora qo'y" (salbiy ma'no);
Black market – "qora bozor" (salbiy ma'no);
Green with envy – "g'azabdan ko'karish" (salbiy ma'no);
Red carpet treatment – "shohdek kutib olish" (ijobiy ma'no);
Blue blood – "ko'k qon", kelib chiqishi oliy inson (ijobiy ma'no);
In the red – "qizilda", qarzga botgan (salbiy ma'no);
Yellow-bellied – "sariq dumli", qo'rqoq (salbiy ma'no);
Golden opportunity – "oltin imkoniyat" (ijobiy ma'no).

Ijobiy baholar, ko'pincha, yorug'lik, tozalik va farovonlikni ifodalovchi ranglar bilan bog'liq (masalan, oq, oltin), salbiy baholar, ko'pincha, g'ovak va g'amgin ranglar bilan bog'liq (masalan, qora, kulrang).

Qoraqalpoq tilida baholovchi ma'nolarni anglatishda rang komponentli frazeologik birliklar ham muhim o'rin tutadi. Misollar:

Aq jol – "tilak, oq yo'l" (ijobiy ma'no);
Qarabet bolıw – "uyatli holat" (salbiy ma'no);
Qara bazar – nızamsız júritiletuǵın bazar (salbiy ma'no);
Kók júrek – "kuchli odam" (ijobiy ma'no);
Qızıl sóz – "bema'ni so'z" (salbiy ma'no);
Aq niyet – "pok niyatli" (ijobiy ma'no);
Qara niyet – "yomon niyatli" (salbiy ma'no);
Sarı uwayım – "xafagarchilik" (salbiy ma'no);
Kók aspan – "moviy osmon" (tinchlik va osoyishtalik timsoli, ijobiy ma'no);
Qızıl maydan – "jang maydoni" (salbiy ma'no).

Qoraqalpoq tilidagi ayrim rang ma'nolari chuqurroq madaniy ildizlarga ega. Shunga o'xshash hodisa ingliz tilida ham kuzatiladi, bunda ranglar, ko'pincha, tarixiy va madaniy an'analar bilan bog'liq, masalan, "blue blood" aristokratik kelib chiqishni ko'rsatadi va "red tape" byurokratik to'siqlarni anglatadi. "Sariq" rangi, ko'pincha, tashvish va qayg'u bilan bog'liq.

Binaraksiologik tahlilni o'tkazish uchun har bir tilning umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish muhimdir. Masalan, ingliz tilida "white lie" frazeologik birligi ijobiy ma'noga ega zararsiz yolg'on sifatida qabul qilinsa, qoraqalpoq tilida oq rang bilan bog'liq shunga o'xshash so'z birikmalari ko'proq poklik va chin yurakdan qilinishi kerak ma'nolarni anglatadi (masalan, "aq niyet"– sof va pok niyatlar). Bunday birliklarning qiyosiy tahlili nafaqat baholovchi qadriyatlarni qabul qilishdagi o'ziga xosliklarni, balki bu o'ziga xosliklarning madaniy ildizlarini ham aniqlash imkonini beradi. Shunday qilib, qoraqalpoq tilida turli frazeologik birliklar ko'proq milliy an'analar va tarixiy tajribani aks ettiradi, bu esa ingliz tilidan farqni kuchaytiradi, bunda madaniy birlashmalarning tabiati boshqacha bo'lishi mumkin (3.2-jadval).

3.2-jadval

Rang komponentli frazeologik birliklarning aksiologik tahlili

Rang	Ingliz tili	Qoraqalpoq tili	Baho
White/oq	White lie, white as snow	Aq jol, aq niyet	Ijobiy
Black/qara	Black sheep, black market	Qarabet bolıw, qara niyet, qara bazar	Salbiy
Red/qızıl	Red flag, red-handed	Qızıl maydan, qızıl sóz	Salbiy
Green/jasıl	Green with envy	Kók júrek	Ijobiy
Yellow/sarı	Yellow-bellied	Sarı uwayım	Salbiy
Blue/kók	Blue blood, out of the blue	Kók aspan	Ijobiy
Gold/altın	Golden opportunity	Altın alma, alǵıs al	Ijobiy

Binaraksiologik tahlil ranglarni tushunishda muhim madaniy farqlarni ochib beradi. Ingliz madaniyatida qarama-qarshi ranglarning (white va black) ramziy shakli yanada yaqqol koʻrinadigan boʻlsa, qoraqalpoq madaniyatida frazeologik birliklarning taxminiy maʼnolariga taʼsir etuvchi milliy anʼana va urf-odatlar katta ahamiyatga ega. Masalan: ingliz va qoraqalpoq tillarida aksiologik yondashuv asosida tahlil qilingan frazeologik birliklardan “black/qora” ranglarida salbiy maʼnoni anglatishda oʻxshashliklar aniqlandi, yaʼni, ingliz tilidagi “black sheep” oiladagi eng uyatsiz aʼzoni anglatishga qoʻllaniladi, ”qarabet bolıw” frazeologik birligi ingliz tilidagi birlikning analogi boʻlib, salbiy maʼnoda ishlatiladi.

Qoraqalpoq tilidagi “oq” rang diniy mazmunda koʻp qoʻllanilishi aniqlandi, biroq bunday kontekst ingliz tilida ham boʻlgani bilan sakral maʼno boshqa komponentlar orqali berilishi aniqlandi.

Ingliz tilidagi “golden opportunity” soʻz birikmasi kamdan kam imkoniyatni bildirsa, qoraqalpoq tilida oltin rangi bunday kontekstlarda ishlatilmaydi. Biroq qoraqalpoq tilida foydali yoki kam uchraydigan imkoniyatlarni koʻrsatish uchun boshqa ranglar ham qoʻllanilishi mumkin, masalan, poklik, yorqin taqdir va umid timsoli boʻlgan “oq” va “koʻk” ranglar.

Ingliz va qoraqalpoq tillari frazeologiyasidagi rang nomlari semantikasining binaraksiologik tahlili ularning madaniy va universal xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Tadqiqot asosida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Rangning qarama-qarshi baholari ikki til va rangli frazeologik birliklar tarkibida binaraksiologik modelga boʻysunadi, bunda rang maʼnolari ijobiy va salbiyga boʻlinadi.

Maʼno	Misol	Aksiologik model	
		+	-
Tozalik, mehr, quvonch, yangilik	*“white lie”*, “*green thumb”*, “aq júrek”, “aq jol”	+	
Qaygʻu, qorongʻilik, xavf-xatar	*“black sheep”*, “*red-handed”,”qara kúń”*, “*qızıl bet”*		-

Qabul qilishning universal xususiyatlarida ayrim rang maʼnolari oʻxshash assotsiatsiyalar tufayli har ikki madaniyatda ham universaldir.

White/oq – tozalik, poklik, yaxshilik: *“white as snow”* (qordey oq), *“aq júrek”* (saxiy yurak), *"aq jol”* (yaxshi yoʻl).

Black/qara – negativlik, qorongʻilik, hasrat: *“black market”* (noqonuniy bozor (qora bozor), *“qara kúń”* (qiyin/mashaqatli/ogʻir kun), *“qara bet”* (uyatsiz).

Red/qızıl – xavotir, ishq, uyat: *“red alert”* (xavotir), *“red tape”* (byurokratlik), *“qızıl bet”* (uyatsiz).

Madaniyatga xos xususiyatlar yuqorida qayd etilgan oʻxshashlikka qaramasdan, koʻp uchraydigan maʼno hisoblanadi.

Blue/kók – ingliz madaniyatida qaygʻu/gʻamginlikni ifodalaydi (“*feeling blue”* tushkunlikga tush-moq), qoraqalpoq tilida “koʻk” koʻproq umid, erkinlik (“kóktiń astı” – moviy osmon ostida) bilan aloqador hisoblanadi.

Green/jasıl – ingliz tilida “*green”* tabiyat, yoshlik, ekologiya (“*green energy*"), qoraqalpoq tilida yashil frazeologik birliklar kam uchraydi, biroq yangilanishni ifodalaydi (“jańa jasıl” – yangi).

Aksiologik assimetriya, ikkala tilda ham yorqin tusli ranglar bilan bog‘liq bo‘lib, masalan, oq, ko‘k va h.k., bu assimetriya ezgulik, poklik va umid qadriyatlarini aks ettiruvchi ijobiy ma’noga ega hisoblanadi.

To‘q rangli tuslar (qora) ko‘proq salbiy o‘xshashliklar bilan bog‘liq bo‘lib, qiyinchiliklarni, qorong‘ilikni, yovuzlikni timsollashtiradi.

Ingliz madaniyatida qizil rang ko‘proq neytral va ko‘p qirrali rang sifatida qabul qilingan bo‘lsa, qoraqalpoq madaniyatida esa salbiy ma’noga ega (“**ántek”**, uyatsiz).

Diniy va madaniy omillarning ta’siri qoraqalpoq madaniyatida rang belgilari orqali ham aks etadi, bu ko‘proq diniy va falsafiy g‘oyalar bilan bog‘liq. Masalan, “oq” faqat poklik ramzi, balki ezgu tilaklarni ham qo‘llaydi (“aq jol”). Ingliz madaniyatida rangli frazeologik birliklar tarixiy yoki kundalik voqelik bilan bog‘lanadi (“red tape” – hujjatlardagi qizil lenta bilan assotsiatsiyasi sifatida).

Rang belgilariga ega frazeologik birliklarning ma’nosi ko‘pincha kontekst bilan belgilanadi. Masalan: “***White lie***” (ingliz) yaxshi niyatli kishi yolg’on gapirsa, “aq júrek” (qoraqalpoq) oq ko‘ngil pák kóńil hám miyir tımsalı bolıp tabıladı. “***Black list***” (ingliz) salbiy ma’no (qora ro‘yxat), “qara kún” (qoraqalpoq) esa qayǵuli voqea bilan bog‘liq.

Xulosa. Binar aksiologik tahlil ingliz va qoraqalpoq tillarining rang komponentli frazeologik birliklari umumi-soniy va madaniy jihatdan o‘ziga xos xususiyatlarni aks ettirishini ko‘rsatadi. Asosiy farqlar rangni madaniy qadriyatlar, tarixiy an’analar va mafkuraviy munosabatlar prizmasi orqali verballashtirishga taalluqlidir.

Rangli frazeologik birliklarning binaraksiologik tahlili ingliz va qoraqalpoq tillarining baholash semantikasidagi madaniy o‘ziga xosliklar va farqlarni yaxshiroq tushunish imkonini beradi. Bunday tahlil nafaqat til hodisalarini nazariy o‘rganish, balki globallashuv va tillararo o‘zaro ta’sir sharoitida, ayniqsa, zarur bo‘lgan madaniyatlararo aloqada amaliy qo‘llash uchun ham foydali bo‘lishi mumkin.

Frazeologik birliklardagi ranglar nafaqat umuminsoniy qadriyatlarni, balki har bir madaniyatning o‘ziga xos xususiyatlarini ham aks ettiradi. Tahlil orqali rang semantikasi madaniy kontekst va o‘ziga xos lingvistik birikmalarga qarab ham ijobiy, ham salbiy ma’no kasb etishini ko‘rsatish mumkin. Madaniy tafovutlarni chuqurroq anglash har bir tilning boyligi va o‘ziga xosligini ochib berishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Арутюнова Н.Д. Аксиология в механизмах жизни и языка. Проблемы структурной лингвистики 1982, М., “ Наука”, 1984, с. 5 – 23.

(2). Бабаева Я.В. Лингвокультурологические характеристики русской и немецкой аксиологических картин мира. Дис. ... док.филолог.наук, Волгоград, 2004, с. 438.

(3). Багаутдинова Г.А. Человек во фразеологии: антропоцентрический и аксиологический аспект.

(4). Болдырев Х.Х. Исследование оценочных смыслов в контексте познавательных процессов. Язык. Текст. Дискурс. Научный альманах. Вып. 8, Ставрополь, 2010, с. 25 – 37.

(5). Karasik V.I. Yazikovoy krug: lichnost, konsepti, diskurs. Volgograd: Peremena, 2002, c. 477.

(6). Rokeach M. Beliefs, attitudes and values. A theory of organization and change. San Francisco, Washington, London: Jossey-Bass Inc. Publishers, 1968, p. 214.

(7). Ammer S. Dictionary of Idioms. Boston New York, Houghton Mifflin Company, 1997, p. 473.

(8). Cambridge Idioms Dictionary. 2nd Edition. Cambridge University Press, 2006.

(9). Cambridge International Dictionary of Idioms. URL:http://dictionaries.cambridge.org (data obrashe-niya: 23.05.2024).

(10). Collins COBUILD Dictionary of Idioms. London, Harper Collins Publishers Ltd., 1997, p. 193.

(11). URL:http://colorrnind.narod.ru/index.htm (data obrasheniya: 22.03.2025).

Ashirbaeva Dilorom Ravshanovna (Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti, Koreyashunoslik oliy maktabi dotsenti, PhD; hangook2019@gmal.com)

KOREYS VA O‘ZBEK OILA DISKURSIDA MUROJAAT BIRLIKLARINING GENDER XUSUSIYATI

Annotatsiya*. Koreys va o‘zbek tillari bir oilaga mansub til hisoblanadi. Shunday ekan, har ikkala tilda jumlalar tuzilishi va murojaatlarda o‘xshash jihatlarni ko‘plab o‘rganish va talqin qilish mumkin. Mazkur maqolada koreys va o‘zbek oilasida erkak va ayollarga nisbatan qo‘llaniluvchi murojaatlar ko‘rib chiqiladi va tahlilga tortiladi. Jumladan, murojaatlarning o‘xshash va farqli tomonlari, tarjimada berilishi misollar yordamida yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *ota-ona, aka, ona, kelin, ayolim, turmush o‘rtog‘im, xotin, uy bekasi, buvi, opa.*